

BARQAROR IQTISODIY O'SISH SHAROITIDA INSON KAPITALINI
RIVOJLANTIRISH

Matyoqubova Muhayyo

*Toshkent moliya instituti "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)"
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson kapitali tushunchasi, insoniyatning postindustrial jamiyatga, informasion va innovasion texnologiyalar davrida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganish dolzarb masalasi bo'lsa, boshqa tarafdin mamlakatlar va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o'rtasida dunyodagi texnologiya bozorida davom etayotgan raqobatlarining shaxs ongiga ta'siri haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *inson kapitali, innovatsion inson kapitali, inson omili, Human Capital inson taraqqiyoti, individual-tipologik xususiyatlari, kognitiv jarayonlar, xarakter temperament, ong osti, muloqot, konflikt, psixologik muhofaza, manipulyatsiya.*

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da inson faktori, inson omili va inson kapitali xususidagi sharhlar «inson» va «omil» so'zlariga bag'ishlangan izohlarda, afsuski, mavjud emas [1]. Ammo, bu so'zlar hamda ish kuchi, inson faktori, inson omili birikmalarining tilimizda amaliy qo'llanilish an'alariga tayanib, ularning anglatgan ma'nolari xususida mulohaza yuritish mumkin. «Ish kuchi» o'zbekchada odamning biologik va fizik imkoniyatlariga («kuch») tayangan holda mehnat faoliyatini amalga oshirilgan vaziyatlarga qo'llaniladigan iboradir. Masalan: 1960-yillarda Angliya va Fransiya mamlakatlari iqtisodining ish kuchiga bo'lgan talabi asosan sobiq mustamlakalardan kelgan qora ishchilar hisobiga qoplanar edi (Gazeta – archive). «Inson faktori» 1980-yillarda tilimizga rus tili orqali kalka yo'li bilan tarjima qilish tufayli(chelovecheskiy faktor inson faktori) kirib kelgan birikma va tushunchadir. Bu birikmaning ma'nolari ichida salbiy va ijobiy bo'yoqlar mavjud. Masalan: Kemaning halokatga uchrashi inson faktori bilan bog'liq (Gazeta – archive). Bu jumlada ibora «insonning beparvoligi, o'z ishiga befarq qarashi» kabi ma'nolarni bildirimoqda. Inson faktori –ishlab chiqarishda hali qo'l urilmagan imkoniyatlardan biri (Gazeta – archive). Bu jumlada, uning asosiy mazmunidan anglashilgani kabi, «faktor» so'zi ijobiy bo'yoqli «imkoniyat» ma'nosini anglatmoqda. «Inson omili» - o'zbek tilida so'ngi o'n-o'n besh yilda nutqiy muomalaga kiritilgan ibora bo'lib, u asosan ijobiy ma'noda qo'llanadi (bu so'z qaysidir ma'noda inson kapitali ma'nosini ham bildiradi). Masalan: Mustaqillik davrida jamiyat taraqqiyotiga sinfiy qarashdan voz kechildi. Jamiyat rivojlanishida inson omiliga oliy qadriyat sifatida qarala boshlandi (Gazeta – archive). «Inson kapitali» va «inson sarmoyasi» birikmalari ayni ma'noda qo'llanadilar. Ammo «sarmoya» so'zining ma'nosida ma'lum bir tarixiy sharoitlarda (eski Sho'ro ideologiyasi ta'sirida) shakllangan salbiy bo'yoq mavjud ekanligi uchun, ilmiy adabiyotlarda va vaqtli matbuot tilida «inson kapitali» birikmasini ko'proq qo'llash

ko'zga tashlanadi. Fikrimizcha, o'zbek tilida «inson kapitali» so'z birikmasini inglizchadagi «Human Capital» ma'nosida ishlatish o'rinlidir. Boshqa birikmalar va tushunchalar esa, ma'lum bir davrlarga xos iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalagani uchun o'sha tushunchalarni ifodalash ehtiyoji tufayli nutqiy qo'llanimda davom etmoqdadir.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ushbu yo'nalishning asosiy yo'nalishi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Mazkur sharoitda insonning amaliy harakatlari natijasida inson kapitalini rivojlantirish uning eng muhim yo'nalishi sifatida qaraladi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson har qanday iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo'lib, u bevosita o'sish sur'ati, ishlab chiqarish, daromad va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarga xos jihatlarga yuqori ta'sir ko'rsatadi. Bu borada O'zbekistonda ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari belgilangan bo'lib, bu, eng avvalo, inson bilimiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omiliga aylanib borayotgan insonning ijodiy qobiliyatlarini miqdor va sifat jihatidan rivojlantirish bilan bog'liqdir. Barcha sohalarda undan resurs sifatida foydalanish asosiy yo'nalish sifatida belgilangan.

Bugungi kunda inson kapitali jamiyat milliy boyligining asosiy tarkibiy qismlaridan biriga aylangan. Inson kapitalidan samarali foydalanish muammolarini o'rganish, uni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, inson kapitalini samarali shakllantirish va amaliyotga to'liq joriy etish dolzarb ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, inson kapitali jamiyatning asosiy boyligi, qimmatli resursi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot mezon bo'lib ham hisoblanadi. Chunki, inson faoliyatining qobiliyatlarini o'rganish, inson kapitali va uning umumiy ijodiy sifat va qobiliyatlarini shakllantirish, inson kapitaliga investitsiyalar kiritish masalasi barqaror iqtisodiyotni rivojlantirish asosidir. Buning uchun inson kapitali tushunchasini o'rganish, uni shakllantirish va samarali foydalanish jihatlari tadqiq qilish mavjud imkoniyatlarni kengaytirish uchun zarur.

Inson kapitali tushunchasi insonni o'zida mujassam qilingan daromad olish va uni topish qobiliyatining o'lchovidir. Mazkur tushuncha insondagi tug'ma qobiliyat va iste'dod, iqtidor, bilim, malaka, intellektual salohiyati, shuningdek, ta'lim va orttirilgan malakani o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda ushbu ta'rif asosini bevosita insondagi mavjud ijobiy va o'ziga xos xususiyatlar ham tashkil etadi. Inson kapitali jismoniy kapitalga o'xshaydi, ammo u aniq farqlarga ega bo'ladi. Bunday kapital mustahkam tovar bo'lib, muddati cheklangan bo'ladi. Chunki, turli kasbiy ko'nikmalarni yo'qotish orqali eskirish paydo bo'lishi mumkin. Texnologiyani rivojlanishi tufayli xodimlar o'zlarining kasbiy mahoratini oshirishga ulgura olmaydilar. Bu holatda inson kapitali jismoniy kapital kabi tugaydigan resurs bo'lib, insonni har tomondan yetuk qilib tarbiyalash uchun maxsus sarflanadigan xarajatlarni talab qiladi. Uni asosiy xususiyati shundaki, ushbu kapital jismoniy kapitalga qaraganda tezroq eskiradi. Hamda, uning qiymati bir-

birini to'ldiruvchi ishlab chiqarish omillari taklifi va ularning qo'shma mahsulotlariga bo'lgan talab o'zgarishiga qarab o'zgarib turishi, ya'ni ko'tarilishi va pasayishi mumkin.

Inson kapitali global boylikning ham muhim tarkibiy qismidir. Jahon statistika ma'lumotlariga ko'ra, jahon bankining 2021-yilgi global boylik hisobotiga ko'ra, u dunyo boyligining qariyb uchdan ikki qismi yoki 64 foizini tashkil qilib, uni qiymati jami 1152 trln. dollarga baholangan. Iqtisodiyot rivojlanishi bilan inson kapitalining umumiy boylikdagi ulushi ortib bormoqda, biroq ba'zi bir mamlakatlarda bu holat kamayish tendensiyasiga ega. Bunga aholining yosh jihatdan qarishi, ish haqining sekin darajada o'sishi va texnologiya ishlab chiqarilgan kapitalni ishchi kuchidan ustun qo'yishi kabi omillar sabab bo'lmoqda.

Shular bilan birgalikda, barcha rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali iqtisodiy taraqqiyot va ilmiy-texnika taraqqiyoti sur'atlarini belgilab beradi. Bunda nomoddiy kapital, ya'ni inson resurslari, bilimi, tajribasi va kasbiy tayyorgarligi muhim rol o'ynaydi. Shu bois, inson kapitalini nomoddiy tabiati, tarixiy shakllanishi va takror ishlab chiqarish jarayonini noan'anaviy jarayonlari bilan bog'liqdir. Aniqroq qilib aytganda, inson kapitali uning barcha rivojlanish bosqichlarida o'rganilgan bo'lib, ushbu bosqichlarga individual, korporativ va milliy bosqichlar xos bo'lib, obyektiv ehtiyoj sifatida o'rganilgan.

Xulosa shuki, inson kapitalining barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri natijasida mamlakatning iqtisodiy ehtiyojlariga nisbatan kapitalning iqtisodiy samaradorligi oshadi. Natijada, mamlakat miqyosida barqaror iqtisodiy o'sish sharoitini yanada yaxshilash hamda uni izchil ta'minlashga olib keladi, bilimli insonlar sonining ko'payishiga sabab bo'ladi, bilim orqali ilm-fanni yuqori miqyosda keng taraqqiy qildirish imkoniyatlari yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Шомиев Г.У. Формирование человеческого капитала как фактор инновационного развития республики Узбекистан. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. №2, mart-aprel, 2019-yil. - 1-15 b.

2. www.fundamental-research.ru

3. www.econs.online